TA’LIMDA RAQAMLI KONTENTLARNI BAHOLASHDA EKLEKTIK YONDASHUV

Sobirova Moxira Rasulovna
Buxoro davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.23510482

Annotatsiya: *Raqamli texnologiyalar ta’lim sohasini jadal o‘zgartirib borayotgan bir paytda, o‘qitish va o‘rganish jarayoniga raqamli kontentlarni tatbiq etish zaruratga aylandi. Mazkur maqolada raqamli kontentlarning pedagogik, psixologik va axloqiy ta’siri haqida so‘z yuritiladi.*
Kalit so‘zlar: *raqamli kontent, raqamli resurs, ilmiylik, moslik, eklektik yondashuv, pedagogik, psixologik, axloqiy, ijodiy, integrativ component*
Аннотация: *В то время как цифровые технологии стремительно трансформируют сферу образования, внедрение цифрового контента в процесс преподавания и обучения стало необходимостью. В данной статье рассматривается педагогическое, психологическое и нравственное влияние цифрового контента.*
Ключевые слова: *цифровой контент, цифровой ресурс, научность, соответствие, эклектический подход, педагогический, психологический, нравственный, творческий, интегративный компонент*
Abstract: *As digital technologies rapidly transform the field of education, integrating digital content into the teaching and learning process has become a necessity. This article discusses information on the pedagogical, psychological, and ethical impacts of digital content.*
Keywords: *digital content, digital resource, scientific validity, relevance, eclectic approach, pedagogical, psychological, ethical, creative, integrative component*

Bugungi shiddatli dunyoda raqamli kontentlar mahsuldorlikni oshiradigan, o‘rganishni yengillashtiradigan va aloqadorlikni kuchaytiradigan muhim vositalarga aylandi. Raqamli asrda yashar ekanmiz, raqamli kontentlar tushunchasiga tez-tez duch kelamiz. Xo‘sh, raqamli kontentlar nima? Sodda qilib aytganda, raqamli kontentlar raqamli shaklda mavjud bo‘lgan hamda ta’limdan tortib turli sohalarda qo‘llanadigan har qanday material va vositalardir.

Raqamli kontentlar ta’lim texnologiyalari vositasida taqdim etiladigan har qanday o‘quv materiallari (elektron kitoblar, videoroliklar, onlayn ta’lim materiallari, interaktiv modullar yoki moslashuvchan o‘quv jarayonini ta’minlovchi raqamli resurslar)ni o‘z ichiga oladi. Bunday kontentlar ta’lim jarayoni ishtirokchilariga ma’lumotlarni takrorlash, ko‘nikmalarni amalda mustahkamlash va qulay tezlikda o‘rganish imkonini beradi.

Shuning uchun raqamli kontent turlarini aniqlab olgach, ularni ta’lim jarayoniga tatbiq etishda raqamli ta’lim resurslarni tanlashda (muayyan ta’limiy vazifalarga bog‘liq) quyidagi mezonlarga amal qilish talab etiladi:

Ilmiylik – tanlanayotgan manbalarning ilmiy jihatdan asoslanganligiga hamda ishonchliligiga e’tibor qaratish lozim[18];

Moslik – raqamli ta’lim resurslarni tanlashda DTS, o‘quv dasturi, ta’lim mazmuni va kutilayotgan o‘quv natijalariga mosligi muhim ahamiyat kasb etadi. Kontent mazmuni ta’lim oluvchilarning tayyorgarlik darajasi, ehtiyojlari va zamonaviy fan-texnika yutuqlarini hisobga olish zarur[19];

Ta’limiy ahamiyati – raqamli ta’lim resurslarning o‘quv jarayonida belgilangan didaktik maqsadlarga erishishga xizmat qilishi, ta’lim oluvchilarning nazariy bilimlari bilan bir qatorda amaliy ko‘nikma va kompetensiyalarni rivojlantirishga imkon yaratishi orqali namoyon bo‘ladi. Talabalarni faollashtirish, mustaqil ta’limni qo‘llab-quvvatlashi hamda o‘quv natijalarini samarali shakllantirishga yordam berishi lozim[20];

Interaktivlik – ta’lim oluvchilarning o‘quv faoliyatiga faol ishtirok etishi, o‘zaro muloqot va hamkorlikni qo‘llab-quvvatlash hamda qayta aloqani ta’minlashni nazarda tutadi;

Ko‘rgazmalilik – raqamli resurslardagi matn, audio, video va animatsiya elementlarining didaktik maqsadga mos bo‘lishi, axborotni idrok etishni yengillashtirishi hamda ortiqcha kognitiv yuklamani yuzaga keltirmasligi zarur[21];

Inklyuzivlik – raqamli ta’lim resurslari barcha foydalanuvchilarga, jumladan, alohida ta’lim ehtiyojiga ega shaxslar uchun ham qulay va foydalanish talabalariga javob berishi lozim[22];

Mualliflik huquqiga rioya qilinishi – raqamli ta’lim resurslarni yaratishda hamda ulardan foydalanishda mualliflik huquqi, litsenziyalash talablari hamda shartlariga rioya qilinishi zarur[23];

Raqamli ta’lim resurslarni tanlash mezonlari talabaning mustaqil fikrlashi, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish hamda yangi g‘oyalarni shakllantirishga xizmat qilishi kerak. Biroq mazkur mezonlarning har birini alohida qo‘llash talaba faoliyatiga ta’sirini to‘liq baholash imkonini bermaydi. Chunki, raqamli kontentlarning ijobiy jihatlari bilan bir qatorda shaxs xulq-atvoriga, dunyoqarashiga,

[18]UNESCO ICT Competency Framework for Teachers 2018 Published in 2018 by the United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization, 7, place de Fontenoy, 75352 Paris 07 SP, France. P 17 – 25

[19] Redecker, C. European Framework for the Digital Competence of Educators: DigCompEdu. Punie, Y. (ed). EUR 28775 EN. Publications Office of the European Union, Luxembourg, 2017, P 20

[20] Redecker, C. European Framework for the Digital Competence of Educators: DigCompEdu. Punie, Y. (ed). EUR 28775 EN. Publications Office of the European Union, Luxembourg, 2017

[21] Mayer, Richard & Fiorella, Logan. (2022). The Cambridge Handbook of Multimedia Learning (3rd ed.). 10.1017/9781108894333.

[22] UNESCO Recommendation on Open Educational Resources (OER) Supporting universal access to information through quality open learning materials. Published in 2022 by the United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization, 7, place de Fontenoy, 75352Paris 07 SP, France. P 13

[23] UNESCO Recommendation on Open Educational Resources (OER) Supporting universal access to information through quality open learning materials. Published in 2022 by the United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization, 7, place de Fontenoy, 75352Paris 07 SP, France. P 12

motivatsiyasiga hamda ijtimoiy munosabatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi tomonlari ham mavjud. Bu esa o‘z navbatida talabaning haddan tashqari ko‘p ma’lumotni qabul qilishiga, ishonchsiz axborotning tarqalishiga, kiberbulling, shaxsiy ma’lumotlarning himoyasizligi va boshqa shunga o‘xshagan muammolarning kelib chiqishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga raqamli kontentlardan me’yoridan ortiq va noto‘g‘ri foydalanish oqibatida talabaning nafaqat ta’lim olishiga, balki uning ijodiy qobiliyatiga, mustaqil fikrlashi va yangi g‘oyalarni yaratish imkoniyatlariga ham salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. shu sababli raqamli kontentlarning ta’sirini bir tomonlama baholash yetarli emas. Shu sababli raqamli kontentlarning talaba faoliyatiga ta’sirini kompleks ravishda inobatga olish zarur. Bu easa raqamli kontentlarni baholashda turli mezon va yondashuvlarni uyg‘unlashtirish, ya’ni eklektik yondashuvdan foydalanish zaruratini yuzaga keltiradi. Demak, “Eklektika” atamasi yunoncha “eclekticos” so‘zidan olingan bo‘lib, tanlab olish, saralash yoki tanlash degan ma’nolarini anglatadi. Quyida raqamli kontentlarni baholashning eklektik modeli berilgan (1-jadval).

1-jadval

Eklektik yondashuv komponentlari	**Asosiy mezonlari**	**Baholash mezonlari**	**Natija**
Pedagogik	Ta’lim maqsadiga mosligi; ilmiyligi;interaktivlik; qayta (teskari) aloqaning mavjudligi; individuallashtirish	Tanlangan kontent ta’lim maqsadiga mos keladimi? Ilmiy va ishonchlimi? Talabaning faolligini oshiradimi?	Ta’limiy samaradorlik
Psixologik	Kognitiv barqarorlik; motivatsiya; emotsional ta’sir; axborotni eslab qolish; yosh xususiyatlariga mosligi	Tanlangan kontent talabaning bilish jarayonlariga va psixik emotsional holatiga qanday ta’sir qiladi? talaba rag‘batini oshiradimi? Kognitiv yuklamani me’yoridan oshirmaydimi?	Ruhiy barqarorlik va qulaylik
Axloqiy	Axborot xavfsizligi; shaxsiy daxlsizlik; mualliflik huquqi; akademik hallolik; qadriyatlarni hurmat qilish;	Tanlangan kontent axloqiy me’yorlarga to‘liq javob beradimi? Mualliflik huquqi tanlanganmi? Zararli axborotlar mavjud emasmi?	Xavfsizlik va mas’uliyat
Axborot, media	Axborotning ishonchliligi; manbani tekshirish ko‘nikmasi; media savodxonlik; raqamli xavfsizlik; tanqidiy fikrlash	Axborot manbasi ishonchlimi? Talaba manbani tekshirish qobiliyatiga egami? Olingan ma’lumotlar natijasida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish mumkinmi?	Raqamli savodxonlik
Ijodiy	Shaxsiy yondashuvning mavjudligi; topshiriqlarni	Tanlangan kontent talaba faoliyatiga qanday ta’sir	Ijodiy fikrlash hamda

	ijodiy bajara olishi; yangi g‘oyalarni shakllantira olishi; tadqiqotchilik	ko‘rsatadi? Uning faoliyatiga to‘siq qo‘ymaydimi? Talaba motivatsiyasini oshiradimi?	muammolarga noodatiy yondashish
Integrativ	Barcha mezonlarning o‘zaro uyg‘unligi; mosligi; kompleks baholash	Tanlangan kontent yuqoridagi barcha talablarga to‘liq javob beradimi?	Raqamli kontentnining komplekssifati

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, raqamli kontentlarning ta’lim jarayonidagi ta’sirini baholash murakkab va muhim masalalardan biri sanaladi. Chunki, bir tomondan raqamli texnologiyalarning ta’lim jarayoni imkoniyatlarini kengaytirsa, boshqa tomondan uning pedagogik, psixologik, axloqiy, ijodiy va boshqa shu kabi muammolarni yuzaga keltiradi. Shu boisdan raqamli kontentlarni faqat bitta mezon asosida baholash orqali haqiqiy natijani olib bo‘lmaydi. Bu esa raqamli kontentlarni baholashda eklektik yondashuvdan foydalanishning ahamiyatini oshiradi.

Umuman olganda, bugungi kunda ta’lim raqamli kontentlar bilan uzviy bog‘liq. Zamonaviy mehnat bozori ish jarayoniga faol kirisha oladigan, tanqidiy va ijodiy fikrlash orqali nostandart masalalarni hal qila oladigan yuqori malakali mutaxasssislarni talab qiladi. Bu esa ta’lim jarayonida turli raqamli ta’lim kontentlaridan foydalanish zaruratini keltirib chiqaradi. Raqamli jamiyatning shakllanishi munosabati bilan raqamli ta’lim kontentlari ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylanadi va mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlarni yetishtirishga yordam beradi. Raqamli kontentlar an’anaviy vositalarga nisbatan qo‘shimcha afzalliklarga ega bo‘lib, ta’lim oluvchilarning mustaqil ta’lim olish jarayoni ahamiyatini oshiradi hamda o‘quv materiallarining ommabopligini kengaytiradi, shuningdek, o‘qituvchi va ta’lim oluvchining ijodiy faolligini rag‘batlantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, 23.09.2020 yildagi O‘RQ-637-son
2. Mayer, Richard & Fiorella, Logan. (2022). The Cambridge Handbook of Multimedia Learning (3rd ed.). 10.1017/9781108894333.
3. Sobirova M.R. Talabalarning ijodiy qobiliyatlarini takomillashtirishda raqamli sinflarning ahamiyati// Inter Education & Global Study. – 2026. – T. 4, № 2. – C. 326 – 331.
3. Redecker, C. European Framework for the Digital Competence of Educators: DigCompEdu. Punie, Y. (ed). EUR 28775 EN. Publications Office of the European Union, Luxembourg, 2017, P 20
4. UNESCO ICT Competency Framework for Teachers 2018 Published in 2018 by the United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization, 7, place de Fontenoy, 75352 Paris 07 SP, France. P 17 – 25
5. UNESCO Recommendation on Open Educational Resources (OER) Supporting universal access to information through quality open learning materials. Published in 2022 by the United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization, 7, place de Fontenoy, 75352Paris 07 SP, France. P 13